



**VERBALIZERS OF HAPPINESS AND UNHAPPINESS IN SUBJECT
REPRESENTATION (FRAME AND SLOT ANALYSIS)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10083762>

Kasimova Madina Zaynobidinovna

Andijan State Institute of Foreign Languages

f.f.f.d.

ABSTRACT

In this article, happiness and unhappiness verbalizers are analyzed based on frames and slots in the subject representation. In English, the conceptspheres of happiness and unhappiness are expressed through various conceptual metaphors. They mainly perform the tasks of emotional-expressiveness, subjective assessment of the speech situation, or deeper disclosure of the phenomenological nature of these concepts

Key words

concept, frame, slot, metaphor, linguistic culture, conceptual field

**BAXTLILIK VA BAXTSIZLIK VERBALIZATORLARI PREDMET TIMSOLIDA
(FREYM VA SLOTLAR TAHLILI)**

Qosimova Madina Zaynobidinovna

Andijon davlat chet tillari instituti

f.f.f.d.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada baxtlilik va baxtsizlik verbalizatorlari predmet timsolida freym va slotlar asosida tahlil qilinadi. Ingliz tilida baxtlilik va baxtsizlik konseptosferalari turli-tuman konseptual metaforalar orqali ifodalanadi. Ular asosan nutqiy vaziyatga hissiy-ekspressivlik, sub'yektiv baho berish yoki mazkur konseptlarning fenomenologik tabiatini chuqurroq ochib berish vazifalarini bajaradi.

Kalit so'zlar

konsept, feyrm, slot, metafora, lingvomadaniyat, konseptual maydon

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются вербализаторы счастья и несчастья на основе фреймов и слотов в репрезентации субъекта. В английском языке



концептосферы счастья и несчастья выражаются посредством различных концептуальных метафор. В основном они выполняют задачи эмоционально-выразительности, субъективной оценки речевой ситуации или более глубокого раскрытия феноменологической природы этих понятий.

Ключевые слова

концепт, фрейм, слот, метафора, лингвокультура, концептуальное поле.

Metaforizatsiya jarayoni asosida freym va ssenariylar kategoriyasi tizimida tavsiflanuvchi va insonning atrof-olam bilan o'zaro munosabati mahsuli bo'lmish bilimlar tizimini qayta ishlash jarayoni yotadi. Ma'lumki, bizning voqelik haqidagi bilimimiz ham murakkab freym tizimida shakllanadi. Har bir inson xotirasida ma'lum miqdordagi bilimlar strukturasi zahirasi saqlanadi va aynan shu zahira axborotni qabul qilib idrok etish vositasi rolini o'taydi. Boshqacha aytganda, har bir shaxs ongida «freymlar to'ri to'plami» mavjudkim, ushbu to'plam bilim va idrok faoliyatini ma'lum ko'rinishdagi «andoza»lar asosida amalga oshishini ta'minlaydi. Freym xuddi shu guruhdagi andozali strukturalar qatoriga kiradi. Har bir freym-senariy tarkibida slotlar (kichik mazmundagi qismlar) ajratiladi va bu slotlarda voqea ishtirokchilarining roli, maqsadi kabilar o'z aksini topadi. Mazkur konseptual freymlar muayyan uslubda inson xatti-harakatini tartibga soladi va o'zgalarning xulq-atvorini to'g'ri talqin qilish imkonini beradi. Shu sababga ko'ra, konseptual maydon obrazli birliklari tahlilida freym-slot andozasini, ya'ni misollar kartotekasida tanlab olingan frazeologik obrazli ifodalarning qanday metaforik donor zonasidan olinganligiga ko'ra freymlar va tegishli slotlarga ajratishni ma'qul deb topdik. Bunday yondashuvga amerikalik sosiolog I.Gofman tomonidan asos solingan bo'lib, sosiologiya, psixologiya, kognitiv lingvistika va kibernetika sohalarining samarali tahlil metodi hisoblanadi. Freym tahlili iyerarxik tuzilishi bilimlar tizimini tartibga solish, muayyan vaziyat to'g'risida

tasavvurni konkretlashtirish, tizimlashtirish imkonini yaratadi. Konseptual maydonlar tahliliga bu tarzda yondashuv kognitiv tilshunoslikda ham rivojlanib bormoqda. Masalan, A.P. Chudinov ishlarida bu yaqqol ko'zga tashlanadi. «Rossiya v metaforicheskom zerkale» nomli tadqiqot ishida freym tushunchasiga olamni lisoniy manzarasining eng sodda birligi sifatida qaraydi va har bir freym o'zi ifodalagan vaziyat birliklarini konkretlashtiruvchi slotlardan iborat bo'ladi. Baxtlilik va baxtsizlikni ifodalovchi verbalizatorlarni predmet freym va slotlarga bo'linishini tahlil qilamiz.

Freym: «baxtlilik va baxtsizlik predmet timsolida».

Slot №1: «baxtlilik va baxtsizlik hajmdor»



(1) *With that, I've put together a list of 25 **small joys** that make me genuinely happy, and I encourage you to do the same!*¹² – *Shu bilan, meni chin baxtga yetaklovchi 25 xil kichik-kichik shodliklarning ro'yxatini tuzdimva sizlarni ham shunday qilishga undayman!*

(2) *It's so important to defuse that because it becomes a **huge misery** needlessly*¹³ – *Bekordan-bekorga ulkan azobga aylanmasligi uchun, vaziyatni yumshatish juda muhimdir;*

(3) *It was **huge luck** that Marcel was not hurt , – Waldner said*¹⁴– *Marsel jarohat olmagan katta omadi bo'ldi, – dedi Ualdner;*

(4) *In early Saroyan writings, Mr. Leggett finds that «under the sense of man's tragedy lay a **big joy**»*¹⁵ – *Janob Leggetning xulosasiga ko'ra Saroyanning ilk ishlarida «inson fojeasi ostida ulkan quvonch yotadi»;*

(5) *"We came here to go all the way and we failed because we lacked that **tiny bit of luck that makes all the difference**"* (Bilic)– *Biz bu yerga oxirigacha borish maqsadi bilan kelgan edik va muvaffaqiyatsizlikka uchradik, sababi, shu muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan omadning mittigina zarrasi yetishmay qoldi-da.*

Xavola etilgan misollar va ularning tarjimalaridan ko'rinib turibdiki, baxtlilik va baxtsizlik konseptosferasi uchun hajm ko'chim manbai sifatida «katta» va «kichik» sifatlari semantik maydoni birliklarigina qo'llaniladi. Mazkur sifat so'z turkumiga oid so'zlar intensivlik yoki darajalanish shkalasi bo'yicha turli ko'rsatkichlarga ega. Xususan, absolyut darajalanmas sifatlar (huge, massive, tiny) qo'llanilish chastotasiga ko'ra ancha faol. Mantiqan olib qaralsa, daraja kategoriyasiga ega bo'lmagan mazkur sifatlar odatda voqelikka hissiy-ekspressivlik berish yoki uni bo'rttirib ko'rsatish kabi uslubiy maqsadlar uchun xizmat qiladi, shuning uchun ham,

emosional konseptlar uchun ayni xos va mos turkum sifatida qarash mumkin. Tahlillar ko'rsatdiki, ushbu sifatlar tadqiqotimiz ob'yektining yadro birliklari bilan kombinatsiyaga kirishadi hamda baxt va uning antikonseptining umumiy emas, balki xususiy, muayyan vaziyatlar uchun xos bo'lgan jihatlari uchun qo'llaniladi.

Slot № 2: «baxtlilik va baxtsizlikning vazni bor».

(1) *His heart was **lead, weighed down** by the memory of what he'd done*¹⁶ – *Uning yuragi qilib qo'ygan ishini eslab qo'rg'oshindek og'ir tortdi;*

(2) *The news of his death (Byron's) came down upon my heart like a mass of lead* (Thomas Carlyle) – *Uning (Bayronning) vafoti haqidagi shumxabar yuragimga qo'rg'oshin uyumidek og'ir botdi;*

¹² 25 small joys that make me genuinely happy <https://www.sprinkleinjoy.com/genuinely-happy-small-joys/>

¹³ Huge misery <https://ludwig.guru>

¹⁴ Willemsen E. Ski federation bans drones after camera nearly hits racer <https://apnews.com/article>

¹⁵ Big joy <https://ludwig.guru/>

¹⁶ Metaphors <https://self-publishingschool.com/>



(3) *He left her with a heavy heart, wondering if she would ever recover*¹⁷– U bir kun kelib, darddan forig' bo'larmikinman, degan o'yda, yuragida zildek og'irlik bilan tark etdi;

(4) *She left for Europe with a light heart, knowing that the kids would be fine.* (Ammer C.,483)– U farzandlaridan ko'ngli to'q, yuragida yengil bir his bilan Yevropa sari yo'l oldi;

(6) *Her heart became as light as a bubble* (Antonia White) – Yuragimni ko'pikdek yengil hislar chulg'adi;

(7)*The mortgage on his house had become a millstone around his neck*¹⁸– Uy uchun ko'targan qarzi yelkasida zambildek yukka aylangan edi.

Qayg'u insonni o'z vazni bilan ezib turuvchi yuk, shodlik esa yengillik bag'ishlovchi kuch sifatidagi talqini jamiki lingvomadaniyatlarda keng tarqalgan. Manbalarda keltirilishicha, «heavy (og'ir)» va «light (yengil)» leksemalarining emosional sferaga ko'chishi XIV asrlarga to'g'ri keladi va «heart (yurak)», «mind (idrok)» va «body (tana)» somatizmlari bilan kombinatsiyaga kirishadi. Asosan turg'un o'xshatishlar o'ramida uchraydi. Bir-biriga muqobil variantlar:

«light as a feather,» «light as wind,» and «light as air», «light as floating clouds», «light as bubble», «light as helium», «light as a seed»¹⁹. Og'irlik uchun eng keng tarqalgan turg'un o'xshatish «heavy as lead (qo'rg'oshindek)» bo'lib, uning yondosh muqobillari quyidagichadir: «heavy as stone», «heavy as cold mud», «heavy as cold iron». «A millstone around one's neck» iborasi kelib chiqishiga ko'ra diniy asoslarga ega. Manbalarda ta'kidlanishicha, «...it has been given in Matthew 18:6 in almost all the translations of the Bible. The Wycliffe Bible the verse says, «It spedith to hym that a mylnestoon of assis be hangid in his necke and be drenchid in to the depnesse of the see.» Since then, the expression has turned into a proverbial idiom and it is used in English since the 14th century» . Demak, «bo'yindagi tegirmon toshi» frazasi ilk bora Bibliyada uchrab, jazo tariqasida qo'llanilgan chora ma'nosiga ishora qiladi. Keyinchalik mazkur ma'noda qo'llaniluvchi «albatross around one's neck» iborasi iste'molga kiritilgan bo'lib, (masalan, «the failed real estate scheme became an albatross around her neck, for now she could not interest other investors in a new project») uning manbasi Semyuel Koleridj qalamiga mansub «The Rime of the Ancient Mariner» (1798, «Qadimgi dengizchilik she'ri») qofiya asosiga qurilgan hikoyasiga borib taqaladi. Unda hikoya qilinishicha, dengizchi albatros qushini o'ldirib qo'yadi. Ularning kemasi ekvator yaqinida suzishdan to'xtab, muallaq qolgan mahal, boshqa kemadosh sheriklari o'sha dengizchini ayblashadi, chunki mazkur dengiz qushini

¹⁷ A heavy heart//<https://idioms.thefreedictionary.com>

¹⁸ Be (like) a millstone around your neck// <https://dictionary.cambridge.org/>

¹⁹ Ammer C. Кўрсатилган манба – P.622



o'ldirish baxtsizlik, omadsizlik olib kelishiga qattiq ishonishardi, shuning uchun qushning jonsiz tanasini uning bo'yniga olib qo'yishadi. Shu-shu «albatross around one's neck» iborasi insonni muvaffaqiyatiga xalaqit beruvchi bo'ynidagi og'ir tashvish (yoki gunoh)ga ishora qilish maqsadida qo'llanilib kelmoqda.

Slot № 3: «baxtlilik va baxtsizlikning rangi bor».

1. Instead of a bright new dawn, there is a dark economic mood (Sunday Times (2010)) – Yorug' bir yangi tong o'rniga zulmat yanglig' iqtisodiy tushkunlik qarshi oldi;

2. I was really feeling blue after she told me she was leaving (Ammer C.,330) – U ketayotganini aytgach, kayfiyatim tushib ketdi;

3. We're glad to hear Bob's in the pink again (Ammer C.,554)– Bobning tag'in sog'-salomat ekanligini eshitib, xursand bo'ldik;

4. I know I'm going to get gray hair from his driving (Ammer C.,384) – Uning mashina haydashidan hali sochimga qirov tushishini bilaman;

5. I was tickled pink when I got his autograph (Ammer C.,1079) – Uning imzosini olib, quvonib ketdim;

6. When we heard the news that David Bowie had died, we knew it was going to be a black day for all of his loyal fans – Devid Bouining vafoti haqidagi xabarni eshitib, bildik-ki, bu uning barcha sadoqatli muxlislari uchun juda ham qayg'ulikun bo'ladi.

Kolorativlarning milliy folklor va poetik an'analar doirasidagi estetik rolini inkor etib bo'lmaydi. Ular barcha lingvomadaniyatlarda voqelikka emosional-ekspressiv bo'yoqdorlik nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega.

Baxt yorqin, baxtsizlik esa to'qroq (qora, kulrang, ko'k) ranglar doirasida ifoda qilinadi. Ular orasida «blue» (ko'k, moviy) rangni bildiruvchi so'zning «xafa, g'amgin» ma'nolarida qo'llanilishi XIV asrning oxirlaridan boshlangan bo'lsa, «pink» (pushti) leksemasi XVI asrda «mukammallikning gavdalanishi» ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kundagi «xursand, shod» (tickled pink- qitiqlanganda inson yuzning kulgudan pushtisifat rangga kirishi ko'tarinki kayfiyat belgisi sifatida) va «sog'lom» (in the pink) kabi ma'nolari XIX asrning boshlariga borib taqaladi. Salbiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan «give gray hair», ya'ni «sochini oqartirmoq»(tashvishga solmoq)ma'nosida qo'llaniladi, masalan: the boy's love of rock climbing gave his parents gray hair (bolaning alpinizmga bo'lgan qiziqishi ota-onasining sochini xo'p oqartirdi). Ko'rinadiki, mazkur iboraning asosida me'yordan ortiq tashvish va qayg'u sochning oqarishiga olib keladi, degan tushuncha yotadi.

Rang leksemalarining so'zlovchi yoki muallifning gap ketayotgan konseptga nisbatan obrazli munosabatini ifodalash orqali ekspressivlikni oshirishda o'zni



beqiyosdir. Ranglar har bir xalqning milliy va madaniy anʼanalari hamda shaxsning atrof-olam bilan munosabatiga ruhiy-emosional planda chuqur singib ketgan. Gyote taʼkidlaganidek: «...ranglar ruhiyatimizga taʼsir qilib, bizni tinchlantiruvchi yoki xayajonga soluvchi his-tuygʻu, emosiyalar, fikrlar uygʻotadi, ular bizni qaygʻuga soladi yoki shodlik baxsh etadi» .

Slot № 4: «baxtlilik va baxtsizlikning harorati bor».

(1) In this fast-paced society, everyone feels pressure, while sometimes we feel warmth when some people show concern and love for us – Shunday tezkor jamiyatda barchamiz bosim ostida yashaymiz, oʻzimizga nisbatan gʻamxoʻrlik va muxabbat namoyon boʻlganda esa ajib bir iliqlikni tuyamiz;

(2) «I wish I could tell you how lonely I am. How cold and harsh it is here. Everywhere there is conflict and unkindness. I think God has forsaken this place.» (Sandy Welch) – Qaniydi, qanchalik yolgʻizligimni sizga ayta olsam. Bu yer naqadar sovuq va yoqimsiz. Atrof ziddiyat va bagʻritoshlik bilan toʻlib toshgan. Fikrimcha, bu yerni Xudo urib qoʻygan;

(3) «Let a kind word warm you when your thoughts turn cold» (Marty Rubin) – Fikrlaring sovuqlashgan payt mehr toʻla soʻzlar qalbingga iliqlik bagʻishlasin;

(4) A warm feeling like cocoa on a cold night (Jean Stafford) – Sovuq tundagi kakao misol iliq bir his;

(5) Happiness ... was there like light seen through moving leaves, like touching a warm stone. (Sumner Locke Elliott) – Baxt.... u oʻsha yerda edi... goʻyo xilpirab turgan yaproqlar aro tushib, iliq toshga tegingan nur yangligʻ.

Harorat konseptual maydoni insonning his-tuygʻu va ruhiy kechinmalari bilan chambarchas bogʻlangan boʻlib, koʻplab emosional konseptlarning obrazli ifodasidasida donor manba sifatida xizmat qiladi. Harorat konseptosferasi barcha tillarda turlicha kategorizatsiyalanadi. Manbalarda taʼkidlanishicha, ingliz tilida oltitadan ortiq haroratni turli intensivlikda tavsiflovchi yadro sifatlar (hot, warm, lukewarm, tepid, cool, chilly, cold), scorching, icy, freeze kabi bir qancha periferik leksika faol qoʻllaniladi .

Tahlillar koʻrsatdiki, kontekstning jamiki koʻrinishlarida baland harorat, yaʼni iliqlik yoki issiqlik asosan ijobiy emosiyalar – bizning tadqiqot obʻyektimiz uchun – baxt koʻchimida gavdalansa, past harorat salbiy ruhiy kechinmalar – baxtsizlik talqiniga xos. Haroratning turli shkalalarda qoʻllanilishi nazarda tutilgan hissiy-emosional holatning intensivlik darajasiga ishora berishi mumkin. Xususan, issiqlikning yuqori darajasi koʻpincha hasad yoki gʻazabning obrazli ifodasida oʻz aksini topib, ijobiylik stereotipidan birmuncha evrilishi mumkin: he was burning with anger (u gʻazabnok boʻlib yonardi). Baxtni ifodalash uchun qoʻllaniluvchi eng keng tarqalgan sifat «warm» (iliq), qaygʻu uchun esa «cold» (sovuq) leksemalari



hisoblanadi. Qiziq jihati shuki, o'zbek tilidan farqli o'laroq, mazkur slot baxtning ifodasi uchun ko'proq xos ekan, sababi, misollar tahlilida baxtsizlikning harorat ko'chimida gavdalanishi baxt metaforalari singari ko'p uchragani yo'q. Yana bir o'ziga xos xususiyat sifatida ushbu leksemalarning ko'p hollarda «feeling» (hissiyot), «to feel»(his qilmoq) konkretizatorlari bilan kombinatsiyada qo'llanilishini e'tirof etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Egamberdiyev J.J. (2021). Phytomorphic metaphors and their types. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2(05), 248–250.
2. G'aniyeva, T. A. qizi. (2023). Similarities and differences of plant name metaphors in english and uzbek languages. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 354–357.
3. Muhayyo A. The problems of translation. – 2017.
4. Egamberdiyeva, I., Tulanboyeva, S., & Tulanova, U. (2023). Proverbs and sayings. the role of science and innovation in the modern world, 2(4), 5-9.
5. Сайидирахимова, Н. Когнитив лингвистика масаласига доир // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2017. – № 1/3. – Б. 341–344.
6. Сайидирахимова, Н. Когнитив тилшунослик ва унинг вазифалари // V Global science and innovations 2019: Central Asia. International scientific practical conference. – Astana, 2019. – Б. 25–29.
7. Беседина, Н. Концептуальное пространство морфологии // Концептуальное пространство языка: Сб. науч. трудов. – Тамбов, 2005. – С. 149–156.
8. Сафаров, Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.
9. Степанов, Ю. Основы общего языкознания. – М., 1995. – 270 с.
10. Стернин, И. Методика исследования структуры концепта. // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001. – С. 58–65.
11. Кубрякова, Е. Когнитивный взгляд на природу частей речи // Словарь. Грамматика. Текст. – М., 1996. – 331 с.
12. Кубрякова, Е. Об установках когнитивной науки и актуальных проблемах когнитивной лингвистики // Вопросы когнитивной лингвистики. – М., 2004. № 1. – С. 6–17. 9. Мещанинов, И. Понятийные категории в языке // Труды Военного института иностранных языков. 1945. № 1. – С. 7–16.